**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

AXMADOVA MUXAYYO OLIMJON QIZI

BIR VA IKKI O‘LCHAMLI PANJARALARDAGI IKKI ZARRACHALI SHREDINGER OPERATORLARI XOS QIYMATLARI SONI VA O‘RNI

01.01.01–Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2024

UDK: 517.984

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

AXMADOVA MUXAYYO OLIMJON QIZI

BIR VA IKKI O‘LCHAMLI PANJARALARDAGI IKKI ZARRACHALI SHREDINGER OPERATORLARI XOS QIYMATLARI SONI VA O‘RNI

01.01.01–Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/FM904 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya V.I.Romanovkiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Laqayev Saidaxmat Norjigitovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Rasulov To'lqin Husenovich** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
	Mo'minov Zaxriddin Eshqobilovich fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «30» 07 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866)231–06–32, faks: (+99866) 235–19–38, e-mail: patent@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (64 raqam bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866)231–06–32, faks: (+99866) 235–19–38.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «16» 07 kuni tarqatildi.
(2024 yil «16» 07 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

A.S.Soleev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

A.M.Xalxo'jayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

I.A.Ikromov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, fizika-matematika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahonda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlarda optik panjaradagi kvant zarrachalar sistemasiga mos diskret Shredinger operatorlari qattiq jismlar fizikasi, yuqori energiyali sistemalar fizikasi va ultrasovuq optik sistemalar fizikasi kabi turli sohalarga oid eksperiment natijalarini nazariy jihatdan asoslashda asosiy mexanizmlardan biri bo‘lib kelmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda zarrachalarning erkin harakatini tavsiflovchi Tyoplitz o‘rama tipidagi operatorlar hamda zarrachalarning juft-jufti bilan o‘zaro ta’siri yoki potensial maydon ta’sirini tavsiflovchi ko‘paytirish operatorlari yig‘indisidan tashkil topgan operatorlar spektral nazariyasini o‘rganish muhim o‘rin tutmoqda. Bu borada zarrachalar sistemasiga mos gamiltonianlar xos funksiyalar yordamida to‘liq tavsiflanganligi uchun gamiltonianlarning spektral xossalari bilan bog‘liq masalalarni tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda kichik o‘lchamli panjaralarda ikki zarrachali sistemalarga mos diskret Shredinger operatorlarining spektral xossalarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda rivojlangan davlatlarning ilmiy-tadqiqot institutlarida ultrasovuq atomlar uchun Feshbax rezonanslarini o‘rganishga oid tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shuningdek bo‘sag‘a hodisasi matematik fizikadagi o‘ta muhim hodisalardandir. Efimov (uch o‘lchamli fazoda) hamda super Efimov effektlari (ikki o‘lchamli antisimmetrik fazolarda) bunga asos bo‘ladi. Bu borada bir va ikki o‘lchamli panjaralarda Shredinger operatorlari uchun ta’sir doimiysining bo‘sag‘a qiymatlari hamda muhim spektrdan yuqorida yotuvchi xos qiymatlari mavjudligini isbotlash, xos qiymatlarning aniq sonini toppish va ta’sir doimiysining bo‘sag‘a qiymatlari atrofida yaqinlashuvchi yoyilmalar olish, operatorning bo‘sag‘a xos qiymatlari hamda bo‘sag‘a rezonanslarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda bir va ikki o‘lchamli panjaralardagi ikki zarrachali sistemalarga mos diskret Shredinger operatorlarining xossalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Algebra va funksional analiz, differensial tenglama va matematik fizika, dinamik tizimlar nazariyasi, geometriya va topologiya, ehtimollik nazariyasi va matematik statistika, amaliy matematika va matematik modellashtirish[1]” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, xususan bir va ikki o‘lchamli panjaralardagi ikki zarrachali Shredinger operatorlarining spektral nazariyasini rivojlantirish muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

So'nggi yillarda Yu.Kondratiyev, O.Kutoviy, S.Pirogov, S.Molchanov va E.Jijina kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi stoxastik modellardagi diffuziya hodisalari uzluksiz nolokal Shredinger operatorlarining diskret spektri sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, S.Albeverio, S.Laqayev, K.Makarov, P.Faria de Veyga, A.Xalxo'jayev va Sh.Xolmatov kabi olimlarning ishlarida bir va ikki o'lchamli panjaralardagi ikkita ixtiyoriy zarrachali sistemalarni o'rganishda diskret Shredinger operatori qaralganligi va uning spektral xossalari tadqiq qilinganliginini ko'rish mumkin.

Ikki va uch zarrachali diskret Shredinger operatorlari xos qiymatlarining mavjudligi va soni masalasi S.Albeverio, K.Makarov, P.Faria de Veyga, S.Laqayev, A.Xalxo'jayev, Z.Mo'minov, E.O'zdemir, I.Bozorov va Sh.Xolmatov kabi olimlarning bir nechta ishlarida tadqiq qilingan. O'lchamlari bir, ikki va uch bo'lgan panjaralarda tortishuvchi ikkita kvant zarrachali sistemaga mos Shredinger operatorlarining muhim spektrdan quyida yagona xos qiymati mavjudligi S.Laqayev, Sh.Xolmatov, A.Xalxo'jayev va Sh.Laqayevlarning ishlarida isbotlangan.

Bir, ikki va uch o'lchamli panjaralarda ta'sirlashuvchi ikkita bir xil bozonlar sistemasiga mos Shredinger operatorining xos qiymatlari soni va joylashgan o'rni S.Laqayev, E.O'zdemir, I.Bozorov, Sh.Hamidov, S.Abduhakimov, I.Alladustova va F.Almuratovlar tomonidan parametrlar va panjaraning o'lchamiga bog'liq holda o'rganilgan. Xususan, S.Lakaev, E.O'zdemir and I.Alladustovalarning ishlarida bir o'lchamli panjarada nuqtada va qo'shni tugunlarda ta'sirlashuvchi ikkita bir xil bozonlar sistemasiga mos Shredinger operatorining xos qiymatlari soni, o'rni va xos qiymatlar dinamikasi parametrlarga bog'liq holda aniqlangan. S.Lakaev, Sh.Xolmatov, Sh.Hamidov va S.Abduhakimovlarning ishlarida ikki o'lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatorlarining xos qiymatlari soni kvaziimpulsning barcha nolmas qiymatlarida tadqiq qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №SMat-05 raqamli "Matematik analiz va uning zamonaviy matematik fizikaga tadbiqi" mavzusida olib borilayotgan majmuali ishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatorlarining muhim va diskret spektrini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bir o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi xos qiymatlarining aniq soni va joylashgan o‘rnini aniqlash;

bir o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi xos qiymatlarining aniq soniga kvaziimpulsning barcha nolmas qiymatlarida aniq baho olish;

ikki o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi bog‘langan holatlari mavjud bo‘lishi uchun yetarli shartlar topish;

ikki o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi xos qiymatlarining soni uchun kvaziimpulsning barcha nolmas qiymatlarida baho olish.

Tadqiqotning ob’yekti bir va ikki o‘lchamli panjaralardagi ikki zarrachali sistemaga mos energiya operatorlaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatorlari spektral tahlilidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik analiz, kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi, funksional analiz, matematik fizika, o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorlarning spektral nazariyasi, va Fredgolm determinantini analitik davom ettirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bir o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi xos qiymatlarining aniq soni va joylashgan o‘rni aniqlangan;

bir o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi xos qiymatlarining aniq soniga kvaziimpulsning barcha nolmas qiymatlarida aniq baho olingan;

ikki o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi bog‘langan holatlari mavjud bo‘lishi uchun yetarli shartlar topilgan;

ikki o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi xos qiymatlarining soni uchun kvaziimpulsning barcha nolmas qiymatlarida baho olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bir va ikki o‘lchamli panjaralardagi ikki bozonli sistemaga mos Shredinger operatori xos qiymatlari xossalari Laplasning nolokal operatori uchun ba’zi chegaraviy masalalarning xos qiymat va xos funksiyalarni qurish usullarini tadqiq etish imkonini bergan;

ikki zarrachali diskret Shredinger operatorining bog‘langan holatlari mavjudligi neytronga boy yaxshi deformatsiyalangan lantanid yadrolarining qo‘zg‘algan holatlari dinamikasini simulyatsiya qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik analiz, funksional analiz, zamonaviy matematik fizika va o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorlarning spektral nazariyasi metodlaridan foydalangan holda aniq matematik tahlillar va isbotlashlar bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorlar spektral nazariyasida, kvant mexanikasi va qattiq jismlar fizikasida panjaradagi ikki va uch zarrachali sistema energiya operatorlari spektrlari hamda xos qiymati mavjudligini ko‘rsatish bilan bog‘liq masalalarni hal etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ilmiy natijalarning qattiq jismlar fizikasi, elastiklik nazariyasi va kvant mexanikasida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish va qo‘llashga nazariy asos sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bir va ikki o‘lchamli panjaralardagi ikki zarrachali Shredinger operatorlari xos qiymatlari soni va o‘rniga oid olingan natijalar asosida:

bir va ikki o‘lchamli panjaralarda ikki bozonli sistemaga mos Shredinger operatorlarining keng sinfi uchun kvaziimpulsning nolmas qiymatlarida Shredinger operatorining muhim spektrdan quyida xos qiymatlari mavjudligini ko‘rsatish usullaridan “Elliptik tenglamalar va ularning kasr tartibli analogi uchun klassik va klassik bo‘lmagan chegaraviy masalalarni yechish usullarini ishlab chiqish” mavzusidagi AP09259074 raqamli xorijiy loyihada (Xo‘ja Ahmad Yassaviy nomli xalqaro qozoq-turk universitetining 2024 yil 04 yanvardagi № 0121PK00198 sonli ma’lumotnomasi) foydalanilgan. Panjaradagi ikki bozonli sistemaga mos Shredinger operatori xos qiymatlari Laplasning nolokal operatori uchun ba’zi chegaraviy masalalarning xos qiymat va xos funksiyalarni qurish usullarini tadqiq etish imkonini bergan;

Ikki zarrachali diskret Shredinger operatorining bog‘langan holatlari mavjudligi neytronga boy yaxshi deformatsiyalangan lantanid yadrolarining qo‘zg‘algan holatlari dinamikasini simulyatsiya qilish imkonini beradi. Olingan natijalardan “Neytronga boy yaxshi deformatsiyalangan lantanid yadrolarining qo‘zg‘algan holatlari dinamikasi” mavzusidagi FRGS19–039–0647 raqamli xorijiy loyihada (Malayziya Muhandislik Xalqaro Islom universitetining 2024 yil 11 yanvardagi № 003–KOE–24 sonli ma’lumotnomasi) foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, jami 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan, 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 82 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **«Boshlang‘ich ma’lumotlar va panjaradagi ikki zarrachali Hamiltonianlar»** deb nomlanuvchi birinchi bobida asosiy natijalarni isbotlashda muhim o‘rin tutadigan o‘z-o‘ziga qo‘shma va kompakt operatorlarning spektri haqidagi ba’zi teoremalar keltirilgan. Shuningdek, panjaradagi bir va ikki zarrachali diskret Shredinger operatorlarining koordinata va impuls tasvirlari aniqlangan va bu operatorlarning chegaralangan va o‘z-o‘ziga qo‘shma ekanligi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiya ishining **“Bir o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatorlarining xos qiymatlari soni va o‘rni”** deb nomlangan ikkinchi bobida, ikki zarrachali diskret Shredinger operatorlarining muhim spektrdan tashqarida joylashgan xos qiymatlari soni va o‘rni o‘rganilgan.

Faraz qilaylik $\mathbb{T}$ bir o‘lchamli tor, $L^{2,e}(\mathbb{T})$ esa $\mathbb{T}$ da aniqlangan kvadrati bilan jamlanuvchi juft funksiyalarning Hilbert fazosi bo‘lsin.

Ikkita bir xil bozon zarrachali sistemaga mos $H_{\gamma\lambda\mu}(K)$, $K \in \mathbb{T}$ diskret Shredinger operatori $L^{2,e}(\mathbb{T})$ Hilbert fazosida quyidagicha aniqlanadi:

$$H_{\gamma\lambda\mu}(K) := H_0(K) + V_{\gamma\lambda\mu},$$

bu yerda qo‘zg‘almas operator

$$\mathcal{E}_K(p) := 2\left(1 - \cos\frac{\mathrm{K}}{2}\cos p\right)$$

funksiyaga ko‘paytirish operatori va $V_{\gamma\lambda\mu}$ qo‘zg‘alish operatori quyidagicha aniqlanadi:

$$V_{\gamma\lambda\mu} f(p) = \frac{1}{\pi}\int_{\mathbb{T}} (\gamma + \lambda\cos p\cos q + \mu\cos 2p\cos 2q)\, f(q)\mathrm{d}q.$$

$V_{\gamma\lambda\mu}$ chekli rangli operator bo‘lganligi uchun Veyl teoremasiga ko‘ra barcha $K \in \mathbb{T}^2$ lar uchun $H_{\gamma\lambda\mu}(K)$ ning $\sigma_{\mathrm{ess}}\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right)$ muhim spektri $H_0(K)$ ning spektri bilan ustma-ust tushadi, ya’ni

$$\sigma_{\mathrm{ess}}\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right) = \sigma\left(H_0(K)\right) = [\mathcal{E}_{\min}(K), \mathcal{E}_{\max}(K)],$$

bu yerda

$$\mathcal{E}_{\min}(K) := \quad \min_{p\in\mathbb{T}} \mathcal{E}_K(p) = 2\left(1-\cos\frac{K}{2}\right) \geq 0 = \mathcal{E}_{\min}(0),$$
$$\mathcal{E}_{\max}(K) := \quad \max_{p\in\mathbb{T}} \mathcal{E}_K(p) = 2\left(1+\cos\frac{K}{2}\right) \leq 4 = \mathcal{E}_{\max}(0).$$

Faraz qilaylik $K \in \mathbb{T}$ va $n_+\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right)$, mos ravishda $n_-\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right)$ $H_{\gamma\lambda\mu}(K)$ operatorning muhim spektrdan yuqoridagi, mos ravishda quyidagi xos qiymatlari soni bo'lsin.

1-teorema. *Aytaylik* $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ *bo'lsin. Agar* $H_{\gamma\lambda\mu}(0)$ *operator muhim spektrdan quyida* n_- *va yuqorida* n_+ *ta xos qiymatlarga ega bo'lsa, u holda istalgan* $K \in \mathbb{T}$ *uchun* $H_{\gamma\lambda\mu}(K)$ *Gamiltonian muhim spektrdan quyida kamida* n_- *ta va yuqorida kamida* n_+ *ta xos qiymatlarga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda,*

$$n_-\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right) \geq n_-\left(H_{\gamma\lambda\mu}(0)\right)$$

va

$$n_+\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right) \geq n_+\left(H_{\gamma\lambda\mu}(0)\right)$$

tengsizliklar o'rinli.

Ushbu

$$C^{\pm}(\gamma, \lambda, \mu) := \mp(\gamma + \lambda + \mu + \gamma\lambda\mu) + \gamma\lambda + 2\gamma\mu + \lambda\mu$$

formula yordamida aniqlangan uch o'zgaruvchining $C^{\pm}$ ko'phadini qaraylik.

1-lemma. $\mathbb{R}^3$ *fazoning* $C^{\pm}(\gamma, \lambda, \mu) = 0$ *tenglamani qanoatlantiruvchi nuqtalari to'plami*

$$\gamma^{\pm}(\lambda, \mu) = -\frac{Q_0^{\pm}(\lambda, \mu)}{Q_1^{\pm}(\lambda, \mu)},$$

funksiyaning grafigi bilan ustma-ust tushadi, bu yerda $Q_0^{\pm}(\lambda, \mu)$ *va* $Q_1^{\pm}(\lambda, \mu)$ *lar quyidagicha aniqlanadi*

$$Q_0^{\pm}(\lambda, \mu) = \mp(\lambda + \mu) + \lambda\mu,$$
$$Q_1^{\pm}(\lambda, \mu) = \mp(1 + \lambda\mu) + \lambda + 2\mu.$$

2-lemma. $\mathbb{R}^2$ *fazoning* $Q_1^{\pm}(\lambda, \mu) = 0$ *tenglamani qanoatlantiruvchi nuqtalari to'plami*

$$\lambda^{\pm}(\mu) = -\frac{2\mu \mp 1}{1 \mp \mu}$$

funksiyaning grafigi bilan ustma-ust tushadi.

$\mu = -1$ va $\mu = 1$ to'g'ri chiziqlar (λ, μ)-tekislikdagi $\lambda^-(\cdot)$ va $\lambda^+(\cdot)$ funksiyaning grafigini ikkita (turli) $\{\tau_1^-, \tau_2^-\}$ va $\{\tau_1^+, \tau_2^+\}$ uzluksiz chiziqlarga ajratadi.

$$\tau_1^- = \{(\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^2 : \lambda = -\frac{1+2\mu}{1+\mu},\ \mu > -1\},$$
$$\tau_2^- = \{(\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^2 : \lambda = -\frac{1+2\mu}{1+\mu},\ \mu < -1\}$$

va

$$\tau_1^+ = \{(\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^2 : \lambda = \frac{1-2\mu}{1-\mu},\ \mu < 1\},$$
$$\tau_2^+ = \{(\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^2 : \lambda = \frac{1-2\mu}{1-\mu},\ \mu > 1\}.$$

$\{\tau_1^-, \tau_2^-\}$ va $\{\tau_1^+, \tau_2^+\}$ chiziqlar (λ,μ)- tekislikni mos ravishda $\lambda^-(\cdot)$ va $\lambda^+(\cdot)$ funksiyalarning aniqlanish sohalari D_1^-, D_2^-, D_3^- va D_1^+, D_2^+, D_3^+ ga ajratadi:

$$D_1^- = \{(\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^2 : Q_1^-(\lambda,\mu) > 0,\ \mu > -1\},$$
$$D_2^- = \{(\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^2 : Q_1^-(\lambda,\mu) < 0\},$$
$$D_3^- = \{(\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^2 : Q_1^-(\lambda,\mu) > 0,\ \mu < -1\}$$

va

$$D_1^+ = \{(\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^2 : Q_1^+(\lambda,\mu) > 0,\ \mu < 1\},$$
$$D_2^+ = \{(\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^2 : Q_1^+(\lambda,\mu) < 0\},$$
$$D_3^+ = \{(\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^2 : Q_1^+(\lambda,\mu) > 0,\ \mu > 1\}.$$

Ta'kidlash joizki, $\gamma^{\pm}(\cdot,\cdot)$ funksiyaning aniqlanish sohasi ushbu

$$\mathbb{R}^2 \backslash \left(\tau_1^{\pm} \cup \tau_2^{\pm}\right) = D_1^{\pm} \cup D_2^{\pm} \cup D_3^{\pm}$$

ochiq to‘plamdan iboratdir. $\mathbb{R}^2$ dagi $\tau_1^{\pm}$ va $\tau_2^{\pm}$ chiziqlar $\mathbb{R}^3$ da mos ravishda $\Upsilon_j^{\pm} \subset \mathbb{R}^3$, $j = 1,2$ sirtlarni aniqlaydi:

$$\Upsilon_j^{\pm} := \left\{(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^3,\ (\lambda,\mu) \in \tau_j^{\pm}\right\}.$$

Shuning uchun, $\mathbb{R}^3$ dagi $\Upsilon_1^{\pm}$ va $\Upsilon_2^{\pm}$ sirtlar $\gamma^{\pm}(\cdot,\cdot)$ funksiyaning grafigini uchta turli uzluksiz (bog‘langan) $\Gamma_1^{\pm}$, $\Gamma_2^{\pm}$ va $\Gamma_3^{\pm}$ sirtlarga ajratadi:

$$\Gamma_j^{\pm} = \left\{(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^3 :\ \gamma = -\frac{Q_0^{\pm}(\lambda,\mu)}{Q_1^{\pm}(\lambda,\mu)},\ (\lambda,\mu) \in D_j^{\pm}\right\}, j = 1,2,3.$$

Shunday qilib, ushbu lemma o‘rinlidir.

3-lemma. $\mathbb{R}^3$ *fazodagi* $\gamma^{\pm}(\cdot,\cdot)$ *funksiyaning grafigi uchta* $\Gamma_1^{\pm}$, $\Gamma_2^{\pm}$ *va* $\Gamma_3^{\pm}$ *uzluksiz sirtlardan iboratdir.* $\Gamma_1^{-}, \Gamma_2^{-}, \Gamma_3^{-}$, *mos ravishda* $\Gamma_1^{+}, \Gamma_2^{+}, \Gamma_3^{+}$ *sirtlar uch o'lchamli* $\mathbb{R}^3$ *fazoni to'rtta* $\mathbb{G}_0^-$, $\mathbb{G}_1^-$, $\mathbb{G}_2^-$, $\mathbb{G}_3^-$, *mos ravishda* $\mathbb{G}_0^+$, $\mathbb{G}_1^+$, $\mathbb{G}_2^+$, $\mathbb{G}_3^+$ *bog'langan komponentalarga ajratadi:*

$$\mathbb{G}_0^- := \{(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^3 \colon C^-(\gamma,\lambda,\mu) > 0,\ (\lambda,\mu) \in D_1^-\},$$
$$\mathbb{G}_1^- := \{(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^3 \colon C^-(\gamma,\lambda,\mu\} < 0,\ (\lambda,\mu) \in \overline{D_1^-} \cup D_2^-\},$$
$$\mathbb{G}_2^- := \{(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^3 \colon C^-(\gamma,\lambda,\mu) > 0,\ (\lambda,\mu) \in \overline{D_2^-} \cup D_3^-\},$$
$$\mathbb{G}_3^- := \{(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^3 \colon C^-(\gamma,\lambda,\mu) < 0,\ (\lambda,\mu) \in D_3^-\}$$

va

$$\mathbb{G}_0^+ := \{(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^3 \colon C^+(\gamma,\lambda,\mu) > 0,\ (\lambda,\mu) \in D_1^+\},$$
$$\mathbb{G}_1^+ := \{(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^3 \colon C^+(\gamma,\lambda,\mu\} < 0,\ (\lambda,\mu) \in \overline{D_1^+} \cup D_2^+\},$$
$$\mathbb{G}_2^+ := \{(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^3 \colon C^+(\gamma,\lambda,\mu) > 0,\ (\lambda,\mu) \in \overline{D_2^+} \cup D_3^+\},$$
$$\mathbb{G}_3^+ := \{(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^3 \colon C^+(\gamma,\lambda,\mu) < 0,\ (\lambda,\mu) \in D_3^+\}.$$

2-teorema. *Faraz qilaylik* $\mathcal{C}^-$ *yuqoridagi* $\mathbb{G}_\alpha^-$, $\alpha = 0,1,2,3$ *bog'langan komponentalarning biri bo'lsin. U holda, istalgan* $(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathcal{C}^-$ *uchun* $H_{\gamma\lambda\mu}(0)$ *ning* $\sigma_{\mathrm{ess}}\left(H_{\gamma\lambda\mu}(0)\right)$ *muhim spektrdan quyida yotuvchi xos qiymatlari soni o'zgarmaydi.*

Shuningdek, aytaylik $\mathcal{C}^+$ *yuqoridagi* $\mathbb{G}_\alpha^+$, $\alpha = 0,1,2,3$ *bog'langan komponentalarning biri bo'lsin. U holda, istalgan* $(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathcal{C}^+$ *uchun* $H_{\gamma\lambda\mu}(0)$ *ning* $\sigma_{\mathrm{ess}}\left(H_{\gamma\lambda\mu}(0)\right)$ *muhim spektrdan yuqorida yotuvchi xos qiymatlari soni o'zgarmaydi.*

3-teorema. *Istalgan* $\alpha,\beta = 0,1,2,3$ *uchun quyidagi tasdiqlar o'rinlidir:*

i) *agar* $(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{G}_\alpha^-$ *bo'lsa, u holda* $n_-\left(H_{\gamma\lambda\mu}(0)\right) = \alpha$*;*

ii) *agar* $(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{G}_\beta^+$ *bo'lsa, u holda* $n_+\left(H_{\gamma\lambda\mu}(0)\right) = \beta$.

Quyidagicha belgilash kiritaylik:

$$\mathcal{C}_{\alpha\beta} = \mathbb{G}_\alpha^- \cap \mathbb{G}_\beta^+,\ \alpha,\beta = 0,1,2,3.$$

4-teorema. *Faraz qilaylik* $K \in \mathbb{T}$ *va* $(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathbb{R}^3$. $\alpha + \beta \leq 3$ *shartni qanoatlantiruvchi barcha* $\alpha,\beta = 0,1,2,3$ *lar uchun quyidagi munosabatlar o'rinlidir:*

i) agar $(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathcal{C}_{\alpha\beta}$ va $\alpha + \beta < 3$ *bo'lsa, u holda*

$$n_-\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right) \geq \alpha,\ n_+\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right) \geq \beta;$$

ii) agar $(\gamma,\lambda,\mu) \in \mathcal{C}_{\alpha\beta}$ va $\alpha + \beta = 3$ *bo'lsa, u holda*

$$n_-\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right)=\alpha,\ n_+\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right)=\beta.$$

“Panjaradagi ikkita bozonli sistema Gamiltaniani bog‘langan holatlari mavjudligi ” deb nomlangan uchinchi bobda, ikki o‘lchamli panjara Z^2 da nuqtada, eng yaqin qo‘shni va ikkinchi eng yaqin qo‘shni tugunlarda mos ravishda $\gamma\in\mathbb{R}$, $\lambda\in\mathbb{R}$ va $\mu\in\mathbb{R}$ sonlar yordamida o‘zaro ta’sirlashuvchi ikkita bir xil bozonlar sistemasiga mos $H_{\gamma\lambda\mu}(K), K\in T^2$ Shredinger operatorlari oilasi o‘rganilgan. $H_{\gamma\lambda\mu}(K)$ operatorning biri muhim spektrning quyi chegarasidan chapda, ikkinchisi yuqori chegarasidan o‘ngda joylashgan ikkita xos qiymatga ega bo‘lishi uchun yetarli shartlar topilgan.

Faraz qilaylik $\mathbb{T}^2$ ikki o‘lchamli tor, $L^{2,e}(\mathbb{T}^2)$ esa $\mathbb{T}^2$ da aniqlangan kvadrati bilan jamlanuvchi juft funksiyalarning Hilbert fazosi bo‘lsin.

Ikkita bir xil bozonlar sistemasiga mos $H_{\gamma\lambda\mu}(K)$, $K\in\mathbb{T}^2$ diskret Shredinger operatori $L^{2,e}(\mathbb{T}^2)$ Hilbert fazosida quyidagicha aniqlanadi:

$$H_{\gamma\lambda\mu}(K):=H_0(K)+V_{\gamma\lambda\mu},$$

bu yerda qo‘zg‘almas operator

$$e_K(p):=2\sum_{i=1}^{2}(1-\cos\frac{K_i}{2}\cos p_i)$$

Funksiyaga ko‘paytirish operatori va $V_{\gamma\lambda\mu}$ qo‘zg‘alish operatori quyidagicha aniqlanadi:

$$V_{\gamma\lambda\mu}f(p)=\frac{\gamma}{4\pi^2}\int\limits_{\mathbb{T}^2}f(q)\mathrm{d}q+\frac{\lambda}{4\pi^2}\sum_{i=1}^{2}\cos p_i\int\limits_{\mathbb{T}^2}\cos q_i f(q)\mathrm{d}q+$$
$$\frac{\mu}{4\pi^2}\sum_{i=1}^{2}\cos 2p_i\int\limits_{\mathbb{T}^2}\cos 2q_i f(q)\mathrm{d}q+$$
$$\frac{\mu}{2\pi^2}\cos p_1\cos p_2\int\limits_{\mathbb{T}^2}\cos q_1\cos q_2 f(q)\mathrm{d}q+$$
$$\frac{\mu}{2\pi^2}\sin p_1\sin p_2\int\limits_{\mathbb{T}^2}\sin q_1\sin q_2 f(q)\mathrm{d}q,\qquad f\in L^{2,e}(\mathbb{T}^2).$$

$\gamma,\lambda,\mu\in\mathbb{R}$ parametrlarga bog‘liq ravishda $V_{\gamma\lambda\mu}$ ning rangi o‘zgaradi, ammo yettidan oshmaydi. Shuning uchun, klassik Veyl teoremasiga ko‘ra barcha $K\in\mathbb{T}^2$ lar uchun $H_{\gamma\lambda\mu}(K)$ ning $\sigma_{\text{ess}}\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right)$ muhim spektri $H_0(K)$ ning spektri bilan ustma-ust tushadi:

$$\sigma_{\text{ess}}\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right)=\sigma\left(H_0(K)\right)=[e_{min}(K),e_{max}(K)],$$

bunda

$$e_{min}(K) := \min_{p\in\mathbb{T}^2} e_K(p) = 2\sum_{i=1}^{2}(1-\cos\frac{K_i}{2}) \geq e_{min}(0) = 0,$$
$$e_{max}(K) := \max_{p\in\mathbb{T}^2} e_K(p) = 2\sum_{i=1}^{2}(1+\cos\frac{K_i}{2}) \leq e_{max}(0) = 8.$$

Aytaylik

$$L^{2,e,s}(\mathbb{T}^2) := \{f \in L^{2,e}(\mathbb{T}^2):\ f(p_1,p_2) = f(p_2,p_1),\ p_1,p_2 \in \mathbb{T}\}$$

va

$$L^{2,e,a}(\mathbb{T}^2) := \{f \in L^{2,e}(\mathbb{T}^2):\ f(p_1,p_2) = -f(p_2,p_1),\ p_1,p_2 \in \mathbb{T}\}.$$

lar mos ravishda $L^2(\mathbb{T}^2)$ dagi juft-simmetrik va juft-antisimmetrik funksiyalar qism fazosi bo‘lsin. Eslatib o‘tamizki

$$\sigma\left(H_{\gamma\lambda\mu}(0)\right) = \sigma\left(H^s_{\gamma\lambda\mu}(0)\right) \cup \sigma\left(H^a_{\gamma\lambda\mu}(0)\right),$$

bunda $H^s_{\gamma\lambda\mu}(0)$ va $H^a_{\gamma\lambda\mu}(0)$ lar $H_{\gamma\lambda\mu}(0)$ operatorning $L^{2,e,s}(\mathbb{T}^2)$ va $L^{2,e,a}(\mathbb{T}^2)$ fazolardagi qismi.

Quyidagi teoremada $H^a_{\lambda\mu}(0)$ ning muhim spektrdan tashqarida aniq ikkita xos qiymatga ega bo‘lishi uchun yetarli shartlar bayon etilgan.

5-teorema. *Faraz qilaylik $\lambda,\mu \in \mathbb{R}$ bo‘lsin. Quyidagi munosabatlar o‘rinlidir:*

i) agar $\lambda > 10, \mu > 10$ bo‘lsa, u holda $H^a_{\lambda\mu}(0)$ energiyasi muhim spektrdan yuqorida yotuvchi ikkita bog‘langan holatlarga ega bo‘ladi;

ii) agar $\lambda < -10, \mu > 10$ yoki $\lambda > 10, \mu < -10$ bo‘lsa, u holda $H^a_{\lambda\mu}(0)$ energiyalarining biri muhim spektrdan yuqorida, ikkinchisi esa quyida yotuvchi bog‘langan holatlarga ega bo‘ladi;

iii) agar $\lambda < -10, \mu < -10$ bo‘lsa, u holda $H^a_{\lambda\mu}(0)$ energiyasi muhim spektrdan quyida yotuvchi ikkita bog‘langan holatlarga ega bo‘ladi.

6-teorema. *Faraz qilaylik $\lambda,\mu \in \mathbb{R}$ bo‘lsin. Barcha $K \in \mathbb{T}^2$ lar uchun ushbu munosabatlar o‘rinlidir:*

i) agar $\lambda > 10, \mu > 10$ bo‘lsa, u holda $\mathrm{n}_+\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right) \geq 2;$

ii) agar $\lambda < -10, \mu > 10$ yoki $\lambda > 10, \mu < -10$ bo‘lsa, u holda

$$\mathrm{n}_-\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right) \geq 1 \quad \text{va} \quad \mathrm{n}_+\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right) \geq 1;$$

iii) agar $\lambda < -10, \mu < -10$ bo‘lsa, u holda $n_-\left(H_{\gamma\lambda\mu}(K)\right) \geq 2.$

Xulosa

Dissertatsiya ishi bir va ikki o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali sistemaga mos Shredinger operatorlarining muhim va diskret spektrlarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

Ilmiy izlanishlarning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

bir o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi xos qiymatlarining aniq soni va joylashgan o‘rni aniqlangan;

bir o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi xos qiymatlarining aniq soniga kvaziimpulsning barcha nolmas qiymatlarida aniq baho olingan;

ikki o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi bog‘langan holatlari mavjud bo‘lishi uchun yetarli shartlar topilgan;

ikki o‘lchamli panjaradagi ikki zarrachali Shredinger operatori o‘zaro ta’sir energiyasi $\gamma, \lambda, \mu \in \mathbb{R}$ parametrlar orqali berilganda kvaziimpulsning nol qiymatida uning muhim spektrdan tashqaridagi xos qiymatlarining soni uchun kvaziimpulsning barcha nolmas qiymatlarida baho olingan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 AT SAMARKAND STATE UNIVERSITY

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

AKHMADOVA MUKHAYYO OLIMJON QIZI

THE NUMBER AND LOCATION OF EIGENVALUES OF TWO-PARTICLE SCHRÖDINGER OPERATORS ON ONE AND TWO-DIMENSIONAL LATTICES

01.01.01-Mathematical analysis

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

Samarkand – 2024

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number B2023.3.PhD/FM904

Dissertation has been prepared at Samarkand State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (uzbek, english, russian (resume)) on the website (www.samdu.uz) and the «Ziyonet» Information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Lakaev Saidahmat Norjigitovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor, Academician
Official opponents:	**Rasulov Tulkin Husenovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Professor
	Muminov Zakhriddin Eshkobilovich Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Associate professor
Leading organization:	National university of Uzbekistan

Defense will take place «30» 07 2024 at 10[00] at the meeting of Scientific Council number DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 at Samarkand State University. (Address: University Boulevard 15, Samarkand, 140104, Uzbekistan, Ph.: (+99866) 231-06-32, fax: (+99866) 235-19-38, e-mail: patent@samdu.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource centre at Samarkand State University (is registered № 64) (Address: University Boulevard 15, Samarkand, 140104, Uzbekistan, Ph.:(+99866) 231-06-32).

Abstract of dissertation sent out on «16» 07 2024 year
(Mailing report № 1 on «16» 07 2024 year)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI • SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI • O'ZBEKISTON

A. S. Soleev
Chairman of scientific council on award of scientific degrees, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor

A.M. Khalkhuzhaev
Scientific secretary of scientific council on award of scientific degrees, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor

I.A. Ikromov
Vice-chairman of Scientific seminar under Scientific Council on award of scientific degrees, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor

INTRODUCTION (Annotation of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Actuality and demand of the theme of dissertation. In the world, special attention are being paid to the research of spectral properties of discrete Schrödinger operators (Hamiltonians) suitable for the system of (quantum) particles in the optical lattice. One the main mechanisms in the theoretical justification of experimental results in various fields such as physics of solid bodies, physics of high-energy systems, and physics of ultracold optical systems. Currently, in developed countries, the spectral properties of operators consisting of set of Toeplitz-type convolution operator and multiplication operator into account only the zero-range and one-range interactions are important place in a wide class of physical models. In this regard, the particles systems of the energy operator on the lattice serve as the theoretical basis for experimental observations.

In the world, the spectral properties of Schrödinger operators corresponding to two-particle systems on one and two-dimensional lattices are important. In this direction, research on the study of Feshbax resonances for ultracold atoms is considered a priority in research institutes of developed countries. Nowadays, these resonances are the only means of studying ultracold atoms. The threshold effect be the basis in mathematical physics for the Efimov effect (in three-dimensional space) and the super-Efimov effect (in two-dimensional antisymmetric spaces). In particular, the development of the research such as to prove the coupling constant threshold phenomena, to find the exact number and location of eigenvalues above the essential spectrum in one and two dimensions, to obtain a convergent expansions for absorbing eigenvalues in one and two dimensions at the corresponding coupling constant thresholds, to identify the threshold resonances and threshold eigenvalues in two dimensions are very demanding.

In our country, special attention is paid to the study of the properties of the two-particle Schrödinger operator in one-dimensional and two-dimensional lattices. For the energy operators associated with systems of two particles moving on one and two-dimensional lattices, number of interesting results were obtained on the existence of bound states which is located outside of the essential spectrum and for their number under various conditions. Conducting research at the level of international standards in the priority areas of "Algebra and its applications, differential equations and their applications, linear systems, dynamic systems and mathematical modeling of their applications, stochastic analysis, medical-biological informatics, computational mathematics"[1] is identified as one of the main tasks of the scientific researches. To ensure the implementation of the decision, it is important to develop theory of quantum field, in particular, the development of the spectral theory of two-particle discrete Schrödinger operators in one- and two-dimensional lattices.

[1] Decree of President of the Republic of Uzbekistan at the "On state support for the further development of mathematics education and science, as well as measures to radically improve the activities of the Institute of Mathematics named after V.I. Romanovsky of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan" PQ-4387 dated July 9, 2019.

